

## MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TALABALARNING MA'NAVIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI

*Ponsotova Feruza Uktamovna*

*Namangan davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada milliy qadriyatlar asosida talabalarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishning mazmun-mohiyati ilmiy-pedagogik jihatdan yoritilgan. Ma'naviy dunyoqarash tushunchasining tarkibiy komponentlari, milliy qadriyatlarning tarbiyaviy salohiyati hamda ta'lim jarayonida ularni integratsiyalashning asosiy yo'nalishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, talabalar ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish mazmuni motivatsion, kognitiv, amaliy-faoliyatli va refleksiv baholash mezonlari asosida izohlanadi.

**Kalit so'zlar:** milliy qadriyat, ma'naviyat, ma'naviy dunyoqarash, tarbiya, ta'lim jarayoni, talaba shaxsi, qadriyatli yondashuv, pedagogik integratsiya.

## СОДЕРЖАНИЕ РАЗВИТИЯ ДУХОВНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

*Понсотова Феруза Уктамовна*

*Независимый научный сотрудник Наманганского государственного педагогического института*

**Аннотация.** В статье научно-педагогически освещена сущность развития духовного мировоззрения студентов на основе национальных ценностей. Анализируются структурные компоненты понятия духовного мировоззрения, воспитательный потенциал национальных ценностей и основные направления их интеграции в образовательный процесс. Содержание развития духовного мировоззрения студентов также объясняется на основе мотивационных, когнитивных, практико-деятельностных и рефлексивно-оценочных критериев.

**Ключевые слова:** национальные ценности, духовность, духовное мировоззрение, воспитание, образовательный процесс, личность студента, ценностный подход, педагогическая интеграция.

## THE CONTENT OF DEVELOPING THE SPIRITUAL WORLDVIEW OF STUDENTS BASED ON NATIONAL VALUES

*Ponsotova Feruza Uktamovna*

*Independent researcher of the Namangan State Pedagogical Institute*

**Abstract.** This article scientifically and pedagogically highlights the essence of developing students' spiritual worldview based on national values. The structural components

*of the concept of spiritual worldview, the educational potential of national values, and the main directions of their integration in the educational process are analyzed. The content of the development of students' spiritual worldview is also explained based on motivational, cognitive, practical-activity, and reflexive assessment criteria.*

**Key words:** national value, spirituality, spiritual worldview, education, educational process, student personality, value-based approach, pedagogical integration.

## KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarning ma'naviy immunitetini mustahkamlash, ularni milliy o'zlikni anglash ruhida tarbiyalash va ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan. Chunki axborot oqimining kuchayishi, g'oyaviy ta'sirlarning xilma-xilligi talaba shaxsida qadriyatlar tizimining barqaror shakllanishini talab etadi. Shu jihatdan milliy qadriyatlar talabalarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda asosiy metodologik tayanch vazifasini bajaradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Milliy qadriyatlar asosida talabalarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish masalasi pedagogika nazariyasi va tarbiya metodikasi yo'nalishida dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Ushbu muammoni yoritishda milliy ma'naviyat, qadriyatlar tizimi, tarbiyaviy jarayonning mazmuni hamda shaxs ma'naviy kamoloti masalalariga bag'ishlangan manbalar alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mavzu bo'yicha tahlil qilingan adabiyotlar mazmunan quyidagi asosiy yo'nalishlarda jamlanadi: I.A. Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asari milliy ma'naviyatni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida talqin qiladi. Asarda ma'naviy tahdidlar, globallashuv sharoitida yoshlarning g'oyaviy immunitetini shakllantirish, milliy ong va milliy g'ururni rivojlantirish masalalari ustuvor o'rinda yoritilgan. A. Abdullayevning "Ma'naviyat asoslari" asari ma'naviyat tushunchasining nazariy asoslarini ochib beradi hamda ma'naviy tarbiya jarayonining mazmunini izchil bayon qiladi. Muallif ma'naviyatni shaxsning axloqiy-ruhiy kamoloti bilan bog'liq hodisa sifatida talqin qilib, unda milliy qadriyatlar va an'analar tarbiyaviy vosita ekanligini ta'kidlaydi. S. Sultonovning esa "Milliy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi" asari bevosita milliy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ilmiy asoslaydi. Muallif milliy qadriyatlarni

yoshlar ma'naviy ongini shakllantiruvchi asosiy omil sifatida talqin qilib, urf-odat, an'ana, madaniy meros, xalq pedagogikasi elementlarining tarbiyaviy imkoniyatlarini yoritadi. Ushbu manbada yoshlarning ma'naviy qadriyatlarga munosabatini shakllantirish mexanizmlari, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashda milliy qadriyatlarning o'rni haqida muhim xulosalar berilgan.


### TADQIQOT METODOLOGIYASI

So'nggi yillarda Yevropa va Osiyo mamlakatlari ilmiy adabiyotlarida qadriyatlar ta'limi "tarbiya mazmunining markaziy komponenti" sifatida talqin qilinmoqda. Tadqiqotlarda qadriyatlar ta'limi talabaning axloqiy tanlov qilish qobiliyati, mas'uliyatli qaror qabul qilishi hamda shaxsiy e'tiqodini shakllantirishga xizmat qilishi qayd etiladi.

Milliy qadriyatlar - bu xalqning tarixiy tajribasi, urf-odati, an'anasi, e'tiqodi, madaniy merosi va ijtimoiy hayotidagi muhim ma'naviy mezonlar majmuasidir. Ular yosh avlodning ijtimoiy hayotga munosabatini, axloqiy qarashlarini, fuqarolik pozitsiyasini va ma'naviy yetukligini belgilovchi omildir.

Ma'naviy dunyoqarash - bu shaxsning jamiyat, hayot, inson, millat va kelajak haqidagi qarashlari hamda qadriyatli munosabatlar tizimi bo'lib, u shaxsning axloqiy yo'nalganligi, e'tiqodi va faoliyatini belgilaydi.

Pedagogik nuqtayi nazardan ma'naviy dunyoqarash quyidagi tarkibiy jihatlarda namoyon bo'ladi (1-rasm):



#### 1-rasm. Ma'naviy dunyoqarashning tarkibiy qismlari

1-rasmdan ko'rish mumkinki, **axloqiy qarashlar** (halollik, adolat, vijdon, or-nomus), **ijtimoiy mas'uliyat** (fuqarolik burchi, vatanparvarlik), **madaniy ong**

(milliy merosga hurmat, madaniy xotira), **ma'naviy ehtiyoj** (o'zini rivojlantirish, ma'naviy kamolot), **g'oyaviy barqarorlik** esa (mustaqil fikrlash va e'tiqod) komponentlari orqali ma'naviy dunyoqarashning qay darajada rivojlanganligini aniqlash mumkin bo'ladi.

Demak, ma'naviy dunyoqarash talaba shaxsining ichki qadriyatlar tizimini shakllantiruvchi va uning hayotiy pozitsiyasini belgilovchi ijtimoiy-psixologik fenomen hisoblanadi.

Milliy qadriyatlar ta'lim jarayonida shaxsning ijtimoiylashuvi va ma'naviy kamolotida asosiy tarbiyaviy manba sifatida xizmat qiladi. Ular talaba shaxsining ongida "milliy identifikatsiya"ni shakllantiradi va o'zligini anglash jarayonini chuqurlashtiradi.

Milliy qadriyatlarning talaba ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari quyidagilarda ifodalanadi:

- xalq tarixi va merosiga hurmatni kuchaytirish;
- ijtimoiy birlik va hamjihatlik tuyg'usini rivojlantirish;
- ma'naviy-axloqiy fazilatlarni mustahkamlash;
- shaxsiy mas'uliyat va fuqarolik ongini shakllantirish;
- milliy g'urur va vatanparvarlik hissini tarbiyalash.

Milliy qadriyatlar nafaqat tarbiyaviy, balki ta'limiy mazmunga ham ega bo'lib, talabaning tafakkurini, fikrlash madaniyatini va axloqiy qarorlar qabul qilish kompetensiyasini rivojlantiradi.

Talabalarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish mazmuni pedagogik jihatdan tizimli tashkil etilishi lozim. Mazkur mazmun quyidagi asosiy komponentlar asosida yoritiladi:

Motivatsion-qadriyatli component. Bu component talabaning milliy qadriyatlarga nisbatan ichki ehtiyoji, qiziqishi va ijobiy munosabatini ifodalaydi. Talaba milliy qadriyatlarni shaxsiy hayotiy mezon sifatida qabul qilishi orqali ma'naviy o'sishga intiladi.

Mazkur component tarkibiga:

- qadriyatlarga ijtimoiy ehtiyoj;
- vatanparvarlik motivlari;

- ma'naviy idealga intilish;
- tarixiy xotiraga hurmat kabilar kiradi.

Kognitiv (bilim) component. Bu komponent milliy qadriyatlar, tarixiy meros, milliy an'ana va urf-odatlar bo'yicha bilimlar tizimidan iborat. Talabanning milliy qadriyatlar haqidagi bilim darajasi uning dunyoqarash shakllanishida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Mazmuniy jihatdan quyidagi bilimlar muhim:

- milliy madaniyat va tarix asoslari;
- buyuk ajdodlar merosi;
- xalq og'zaki ijodi va ma'naviy qadriyatlar;
- milliy g'oya va mafkura tushunchalari.

Amaliy-faoliyatli component. Ushbu komponent talabanning milliy qadriyatlarga asoslangan xulq-atvori va faoliyatini anglatadi. Bilim va munosabat faqat amaliyot bilan mustahkamlangandagina ma'naviy dunyoqarash barqaror shakllanadi.

Bu jarayonda:

- jamoatchilik ishlarida faol ishtirok;
- madaniy-ma'rifiy tadbirlar;
- ijtimoiy loyihalar va volontyorlik;
- milliy urf-odatlarini amaliy qadrlash kabi faoliyatlar muhimdir.

Refleksiv-baholovchi component. Bu komponent talabanning o'zini tahlil qilish, qadriyatlarga nisbatan ichki baho berish, ma'naviy o'sishini nazorat qilish jarayonini ifodalaydi. Refleksiya shaxsning ma'naviy ongini rivojlantiruvchi yuqori darajadagi psixologik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur komponent orqali:

1. shaxsiy hayotiy pozitsiya shakllanadi;
2. ma'naviy xatti-harakatlar baholanadi;
3. o'z ustida ishlash ehtiyoji ortadi.

Milliy qadriyatlar asosida ma'naviy dunyoqarashni rivojlantirish ta'lim mazmuniga quyidagi yo'nalishlar orqali singdiriladi:

- o'quv fanlari mazmunida milliy g'oya va tarixiy merosni aks ettirish;

- tarixiy shaxslar, allomalar, mutafakkirlar merosini o'rganish;
- ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tizimini kuchaytirish;
- innovatsion tarbiyaviy metodlardan foydalanish (debate, case-study, "aqliy hujum", loyiha metodi);
- ijtimoiy hamkorlik (oila, mahalla, OAV, jamoat tashkilotlari bilan integratsiya).

Ushbu yo'nalishlar talabalarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda tizimli va kompleks yondashuvni ta'minlaydi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida milliy qadriyatlar asosida talabalarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish mazmuni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida talabalarning milliy qadriyatlarga munosabati, ma'naviy-axloqiy qarashlari hamda fuqarolik pozitsiyasidagi o'zgarishlar aniqlash maqsadida kuzatuv, suhbat, anketa va diagnostik metodlardan foydalanildi. Olingan natijalar milliy qadriyatlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tizimli integratsiyalash talaba shaxsining ma'naviy dunyoqarashiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Talabalarda ma'naviy barqarorlik, axloqiy ong, fuqarolik mas'uliyati hamda milliy g'urur kabi sifatlar rivojlanganligi kuzatildi.

Natijalar asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Milliy qadriyatlar talaba shaxsining ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda asosiy ijtimoiy-pedagogik omil hisoblanadi.
2. Qadriyatli yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabaning motivatsiyasi va ma'naviy ehtiyojlarini faollashtiradi.
3. Interaktiv metodlar asosida milliy qadriyatlarni o'qitish talabalarda mustaqil fikrlash va reflektiv tahlil ko'nikmalarini rivojlantiradi.
4. Ma'naviy dunyoqarashning barcha komponentlari (motivatsion, kognitiv, faoliyatli, reflektiv) bir butun tizim sifatida shakllantirilganda barqaror natijaga erishiladi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Milliy qadriyatlar asosida talabalarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish mazmuni pedagogik jarayonning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, u

shaxsni ma'naviy barkamollikka yetaklovchi asosiy tarbiyaviy omil sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur jarayon motivatsion-qadriyatli, kognitiv, amaliy-faoliyatli hamda reflektiv-baholovchi komponentlar uyg'unligida tashkil etilgandagina samarali natija beradi.

Shuningdek, milliy qadriyatlar ta'lim mazmuniga integratsiyalashgan holda kiritilganda talabalarda milliy o'zlikni anglash, fuqarolik mas'uliyati, ma'naviy barqarorlik va ijtimoiy faollik kabi sifatlar shakllanadi. Demak, milliy qadriyatlarga tayangan tarbiya talaba shaxsining ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishning eng ishonchli pedagogik asosidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. O'zbekiston. Toshkent.2022. 212-bet
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
3. Abdullayev A. Ma'naviyat asoslari. – T.: O'qituvchi, 2019.
4. Sultonov S. Milliy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: Fan, 2020.
5. Vohidov E. Ma'naviy tarbiya nazariyasi va amaliyoti. – T.: Akademnashr, 2022.